

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MAROKASH VA TUNIS DAVLATLARINING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI MIGRATSIYA XUSUSIYATLARI VA FARQLARI

Sharofova Diyora Shavkat qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: Diyorasharofova33@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0618-7459>

Annotatsiya.

Mustaqillikdan keyin Marokashda siyosiy-iqtisodiy inqiroz hamda jamiyat notinchligi vujudga keldi. Siyosiy boshqaruv markazlashmagan, iqtisodiyot to'liq Fransiya qo'lida, pul birligi frank bilan o'lgangan, asosiy til fransuz tili, ta'lim rivojlanmaganligi kabi muammolar avj olgan edi. Tunis davlatida ham Marokash kabi aholi sonining tezlik bilan ko'payishi, sanoat – ishlab chiqarish rivojlanmaganligi, iqtisodiy daraja past ammo ishsizlik miqdori yuqoriligi kabi muammolar bo'lib, shu sabab migratsiya muhim deb hisoblandi. XX asrning 60-70-yillarida asosan ishga layoqatli yosh yigitlar Fransiya, Germaniya va Belgiya davlatlariga ishlab chiqarish, qurilish, konchilik kabi sohalarda ishlash uchun borishgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat shartnomalari, muhojirlar, viza shartlari, chegara havfsizligi, tashqi aloqalar tarixi.

ОСОБЕННОСТИ И РАЗЛИЧИЯ МИГРАЦИИ В МАРОККО И ТУНИСЕ ПОСЛЕ ОСВОБОЖДЕНИЯ

Шарофова Диёра Шавкат кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант.

Аннотация.

После обретения независимости в Марокко произошел политико-экономический кризис и социальные волнения. Политическое управление было децентрализовано, экономика полностью находилась в руках Франции, валюта измерялась франками, основным языком был французский, а образование было слабо развитым. Тунис, как и Марокко, сталкивался с такими проблемами, как быстрый рост населения, слабо развитая промышленность и производство, низкий экономический уровень, но высокая безработица, поэтому миграция считалась важной. В 60-х и 70-х годах XX века в основном молодые мужчины трудоспособного возраста уезжали во Францию, Германию и Бельгию работать в таких отраслях, как обрабатывающая промышленность, строительство и добыча полезных ископаемых.

Ключевые слова: миграция, трудовые договоры, иммигранты, визовые условия, безопасность границ, история международных отношений.

FEATURES AND DIFFERENCES OF MIGRATION OF MOROCCO AND TUNISIA AFTER INDEPENDENCE

Sharofova Diyora Shavkat qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, Basic Doctoral Student.

Abstract.

After independence, a political and economic crisis and social unrest occurred in Morocco. Political governance was decentralized, the economy was completely in the hands of France, the currency was measured in francs, the main language was French, and education was underdeveloped. Tunisia, like Morocco, had problems such as rapid population growth, underdeveloped industry and production, low economic level but high unemployment, which is why migration was considered important. In the 60s and 70s of the 20th century, mainly young men of working age went to France, Germany, and Belgium to work in industries such as manufacturing, construction, and mining.

Keywords: migration, labor contracts, immigrants, visa conditions, border security, history of foreign relations.

Kirish. Mustaqillikning ilk yillarida Marokashda 2,5 million nafar maktab yoshidagi o'quvchilardan 130 ming nafari maktabga borgan, qolganlarining bormasligiga sabab moliyaviy kamomad hamda ijtimoiy qoloqlik edi. Ya'ni, aholining katta qismi ishsiz edi. Bundan tashqari, tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim kabi ijtimoiy imkoniyatlar

yaratilmagan edi. Marokash aholisining 87 foizi yaxshi ta'lim olmagan bo'lib, 1956-yilda 400 ming nafar ayol va erkak o'qimagan edi. Xorijiy kompaniyalarning katta qismi yopildi va yevropaliklarning asosiy qismi Marokashdan chiqib ketdi hamda ular 69 milliard frank miqdoridagi kapitalni olib chiqib ketdi. Korxona va kompaniyalarning yopilishi hisobiga ishsizlar miqdori ko'paydi hamda 1956-yilning so'ngida qishloqdagi ishsizlik miqdori 300 ming nafarga yetdi. Narx-navoning qimmatlashuvi va mahsulot tanqisligi natijasida qishloqdan shaharga aholi ichki migratsiyasi ro'y berdi. 1956–1959-yillarda davlatning qashshoqlikning oldini olish maqsadida 325,6 ming gektar yerni dehqonlar va qishloq aholisiga ajratishi ham qishloq xo'jaligidagi inqirozning oldini olmadi [20; B. 80.]. Tunis mustaqillikka erishgach, mamlakatda iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilishi hamda aholiga ijtimoiy soha xizmatlarining sifatini oshirish vazifasi qo'yilgan edi. Ushbu vazifalarni bajarishga davlatda ishsizlik muammosi to'sqinlik qilgan. Shu sababli Tunis hukumati uchun ham aholining ishchi migratsiyasini amalga oshirishi muhim hisoblangan.

Ushbu jarayonlar oqibatida Fransiya migratsiya qilish zarur edi hamda Marokash immigratsiyasining rivojlangan davri boshlandi. Xususan, Marokashda KAS jamg'armasi rahbari, germaniyalik tarixchi Dr. Helmut Reifeld o'zining memuarida: "Migrantlar pul jo'natmalari o'sha davrda ham, hozirda ham iqtisodiyot uchun muhim", deb ta'kidlagan [5; B. 39.]. Jumladan, Fransiya marokashliklar miqdori 1949–1962-yillarda 20 000 nafardan 53 000 nafarga yetdi. Marokash migratsiyasining rivojlanganligining asosiy sababi Fransiyaning jazoirliklar migratsiyasini cheklab, marokashliklarni jalb qilganligi hamda Jazoir mustaqillikka erishgach, yevropalik ish beruvchilar bilan birga Jazoiridagi marokashlik ishchilarning ham Fransiya ketganligi hisoblanadi. Jumladan, 1960-yillarda Jazoiridagi 215 000 nafar marokashlikdan 85 000 nafari qolib, qolgan qismi Fransiya migratsiya qilgan. Marokashning bir necha yirik shaharlari migratsion harakatlar vujudga kelishi uchun qulay geografik joylashuvga ega edi. Xususan, Suss–Massa shahri yirik migratsion harakatlar vujudga kelgan hudud hisoblanib, bu yerdan tarixan marokashliklar Jazoirga ishlash maqsadida borishgan [10; B. 53.]. Dastlab marokashliklar ushbu hududlardan Jazoirga I–II jahon urushi yillarida ishlash maqsadida borishgan, urushdan keyin Fransiya migratsiya yo'nalishi shakllangach, Fransiya ketuvchilar soni ham ko'paydi. Sahara vodiysi keyingi darajada muhim migratsion hudud hisoblanib, u yerdan Fransiya, Belgiya va Niderlandiyaga harakatlanish yo'nalishlari ta'minlangan. Aholi zich joylashgan va o'ta quruq hudud bo'lgan Rif shahri Yevropaga migratsiya jarayonlarida eng muhim hudud hisoblanadi. Ispaniya mustamlakasi ostida bo'lgan bu hududda fransuz tilida gaplashilmagan hamda tarixan bu yerda fransuzlar istiqomat qilmaganligi sababli, Rifdan Belgiya, Niderlandiya va Germaniyaga migratsiya shakllangan.

Tunis migratsiyasi Marokashdagi kabi mehnat shartnomalari hamda ish berish agentliklari orqali rivojlandi. Migratsiyaning ko'lamini Jazoir hamda Marokash bilan solishtirilganda yuqori ko'rsatkichda bo'lmasa-da, ishga layoqatli tunisliklar sonining 15–20 foizini tashkil qilgan [2; B. 68–69.]. 1960-yilda deyarli 70 000 nafar tunislik ishchi migratsiyasini amalga oshirgan [6; B. 2.]. Tunisliklarning asosiy manzili Fransiya bo'lib, 1881–1956-yillardagi mustamlaka davridagi yaqinlik hamda aloqalar, o'sha davrlarda vujudga kelgan migratsiya xususiyatlari va 1963-yilda (Yevropa davlatlari ichida birinchi bo'lib) tuzilgan mehnat shartnomasi muhim omillar hisoblangan. Tunisliklar Fransiyaning asosan Lion va Marsel kabi shaharlarida yashagan. XX asrning 70-yillarida migratsiya darajasi Yevropa va Fransiya tomonidan immigratsiyaga cheklovlar o'rnatilishi sabab pasaydi. Xususan, 1975-yilda 8 762 nafar tunislik Fransiya migratsiya qilgan [1; B. 34–35.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Marokash va Tunis davlatlarining migratsiyasi tarixiy tadqiqotlarda asosiy dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi hamda xalqaro miqyosda keng darajada o'rganiladi. Shimoliy Afrika tarixi hamda Marokash migratsiyasi tarixiga aloqador izlanishlar olib borgan tarixshunos Susan Gilson Miller [15; B. 2.] Kaliforniya universitetining asosiy tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi Hein de Haas [12; B. 49–50.], [19; B. 36.] Mag'rib migratsiyasi tarixiga aloqador ko'plab maqolalar va asarlar muallifi hisoblanadi hamda u o'z tadqiqotlarida migratsiya tarixiga oid ahamiyatli ilmiy yangiliklarni aniqlagan. Mag'riblik tadqiqotchi Hassan Boubakri Shimoliy Afrika davlatlari migratsiyasida ishchi muhojirlar davri hamda faoliyati bo'yicha asosiy mutaxassis va tarixchi hisoblanadi [4; B. 45.]. Bundan tashqari, Shimoliy Afrika davlatlari tarixiga aloqador Taylor hamda Francis tomonidan nashr qilinadigan *The North African Journal of Studies* asosiy birlamchi va ikkilamchi adabiyotlarga ega [16; B. 2–3.]. Ushbu manbalar va qo'shimcha adabiyotlar foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Marokash

1970-yillargacha Yevropadagi Marokash muhojirlari miqdori 300 000 nafarga yetdi. Bunda marokashlik yahudiylarning migratsiya darajasi yuqori bo'lib, asosan Fransiya, Isroil va Kanadaga qaratilgan edi. Natijada, Marokashdagi yahudiylar soni 250 000 nafardan 5 000 nafarga tushdi. Bundan tashqari, marokashliklar boshqa arab davlatlariga ham migratsiya qilgan, xususan, Liviyaga 120 000 nafar ishchi muhojir borgan edi [17; B. 3.].

1963-yilda ishchi migrantlardan manfaatdor bo'lgan Fransiya Marokash bilan mehnat shartnomasini imzoladi va migrantlarga bir qator imkoniyatlar taklif etdi. Xususan, bitim orqali Marokash davlati agentliklari bevosita ishga yollash jarayonida ishtirok eta boshladi; agentliklar migrantlar xohishiga qarab mehnat sohalarini taklif qilishni yo'lga qo'ydi hamda shu orqali yanada ko'plab migratsiya yo'nalishlari shakllandi; ishchilarga Fransiya safar davomida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida transport taklif etildi; ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalari tuzilishi yo'lga qo'yildi va boshqa shu kabi imkoniyatlar taqdim etildi. Ikki davlat o'rtasidagi bitim migratsion jarayonlarni norasmiy shakldan mustaqil davlat migratsiya tizimiga o'zgartirdi [18; B. 23.].

Yevropa davlatlari migratsiyani kelishuv va shartnomalar orqali tashkillashtirgani hamda infratuzilmadagi qulayliklar migratsiya oqimiga yanada ta'sir qildi. Marokash boshqa Yevropa davlatlari bilan ham xuddi shunday mehnat shartnomalarini imzoladi va migratsiya ko'lamini kengaytirdi. G'arbiy Germaniya bilan 1963-yilda, Belgiya bilan

1964-yilda, Niderlandiya bilan esa 1969-yilda tuzilgan shartnomalar ham Marokash uchun migratsiya hududlarining kengayishiga sababchi bo'ldi [19; B. 37.]. Natijada, 1965–1972-yillar orasida Yevropada istiqomat qiladigan marokashliklar soni uch baravarga oshib, taxminan 300 000 nafarga yetdi [17; B. 3.].

Yevropa davlatlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari hamda XX asrning 60–70-yillaridagi iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish Marokashda migratsiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldi. 1970-yillarda 500 000 nafardan oshiq marokashlik Yevropada rasmiy tarzda istiqomat qilgan [12; B. 34.]. Migrantlarning katta qismi mehnat shartnomalari orqali Yevropaga borishgan, ozchilik intellektual soha vakillari esa AQSH va Kanadaga borishgan. Xususan, Fransiya, Niderlandiya, Germaniya va Belgiya davlatlarida marokashliklar miqdori 1975-yilda 400 000 nafardan oshiq bo'lgan bo'lsa, 1992-yilda 1 milliondan ortiq edi [13; B. 316.]. Shartnomalari muddati tugagan bo'lsa-da, noqonuniy tarzda Yevropa hududlarida bir davlatdan boshqasiga ko'chib yurib, ish izlayotgan marokashliklar ham bo'lgan va ular "noqonuniy ishchilar" deb nomlangan [8; B. 38.]. Dastlabki yillarda Yevropa davlatlaridagi sanoat, ishlab chiqarish, konchilik, qurilish hamda qishloq xo'jaligi kabi sohalarga marokashlik muhojirlar jalb etilgan.

1960-yillarning o'rtalarida Marokashda Fransiya va boshqa Yevropa davlatlari taklif etgan moliyaviy dasturlar orqali iqtisodiy o'zgarish bo'ldi, ammo aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya, demografik o'sish hamda qishloq xo'jaligidagi hosilsizlik sabab ishsizlik ko'rsatkichi yuqorilgicha qoldi. 1960-yilda Marokash aholisi 11,6 millionni tashkil etgan bo'lib, bu har bir oilaga 7–8 nafar farzand to'g'ri kelganligini bildirgan. Bu raqamlar keskin o'sib, 1965-yilda 13,5 million, 1970-yilda esa 15,3 millionni tashkil etdi [3; B. 155–156.]. Bu ko'rsatkich 1975-yilda 17,3 millionga ko'tarilib, vaziyatni og'irlashtirdi hamda migratsiyaga bosimni kuchaytirdi. Sababi, aholi tarkibining 50–55 foizini 20 yoshdan past bo'lgan yoshlar tashkil qilar va ularning katta qismi ishsiz edi [11; B. 2.]. Marokash aholisi ushbu davrda kambag'allikni boshdan kechirayotgan edi, ya'ni 1960–1970-yillarda aholining kambag'allik darajasi mos ravishda 65–70 foiz hamda 55–60 foizni tashkil etgan. Ushbu vaziyatni tez-tez takrorlanuvchi qurg'oqchilik, ta'limning rivojlanmaganligi hamda sanoatning ortda qolishi kabi muammolar ham keskinlashtirdi. Bundan tashqari, Qirol Hassan II davrida siyosiy bosim kuchaydi hamda muxolifat repressiya bilan bostirildi. Uning davrida iqtisodiyot rivojlanib, siyosiy aloqalar kengaygan bo'lsa ham, avtoritar boshqaruv sababli uning hukmronlik davri "Qo'rg'oshin yillari" deb nomlanadi. Natijada, 1960–1970-yillarda Marokash migratsiyasining rivojlanishida nafaqat iqtisodiy, urbanizatsion va demografik, balki siyosiy omillar ham muhim hisoblandi. Marokash hukumati har bir oilada hech bo'lmaganda bir o'g'il farzandning migratsiya qilishini majburiyat darajasida belgiladi.

XX asrning 70-yillarida Marokashda siyosiy muammo yuzaga keldi va bu uning ichki hamda tashqi siyosiy jarayonlariga ta'sir qildi. Marokashning Ispaniya protektoratligida bo'lgan G'arbiy Sahara hududini boshqaruv ostiga olishi u yerning mahalliy aholisining qarshiligiga sabab bo'ldi. Natijada, Polissario fronti shakllandi va 1970-yillarda Marokashga qarshi harakat qila boshladi. 1973-yildagi ikki tomon o'rtasidagi ziddiyatlarga Polissario frontini Jazoir qo'llab-quvvatlagani salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buning oqibatida Marokash va Jazoir o'rtasidagi aloqalar yomonlashdi hamda chegara xavfsizligi kuchaytirildi. Ushbu jarayonlar Marokash uchun armiya, chegara xavfsizligi va tashqi aloqalarni kuchaytirish maqsadida moliya ajratish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada, migrantlar hamda ularning pul jo'natmalariga ehtiyoj oshdi. Sababi, 1970-yillarda deyarli 20 million aholini yetarli ish va yashash sharoitlari bilan ta'minlash mushkul edi, 1975–1976-yillarda qurg'oqchilik sabab qishloq xo'jaligida hosilsizlik kuzatildi, ishsizlik va kambag'allik darajasi oshdi. Tashqi qarzlar o'sib borayotgan vaqtda hukumat uchun ham migratsiya muhim iqtisodiy omil hisoblanib, Yevropada ish haqi miqdori 8–12 barobar ko'p edi [11; B. 3.]. Fransiya shaharlarning alohida sanoat sohalari xoslashtirilganligi ham migratsiyaning juda tez va oson rivojlanishida asosiy omil bo'ldi. Xususan, Parij qurilish sohasi bilan, Lion metallurgiya hamda ishlab chiqarish, Lill konchilik va og'ir sanoat, Marsel esa port xizmati va qurilish sohalari bilan ajralib turar edi.

Marokashlik muhojirlar Belgiyaga konchilik va po'lat sanoatida xizmat qilish uchun borgan. Belgiya mahalliy aholisi ushbu sohalarda og'ir va xavfli mehnat sharoitlari sabab ishlashdan bosh tortgani oqibatida hukumat mehnat shartnomalari orqali marokashliklarni o'ziga jalb etdi. Bu holat muhojirlar uchun mutanosib edi, chunki Belgiya taklif etayotgan ish haqi miqdori Marokashnikiga nisbatan bir necha barobar ko'p edi. Shu sababli ham Belgiyada mehnat qilayotgan marokashlik muhojirlar soni 1970-yildagi 40 000 nafardan 1973-yilda 60 000 nafarga ko'paydi [12; B. 32.].

Niderlandiya va Marokash o'rtasida shakllangan migratsiyaning o'ziga xos jihati uning uzviy zanjir ko'rinishida rivojlanganligida edi. Ya'ni, marokashlik muhojirlar asosan Rif va Bani Mellal nomli qishloq hududlaridan bo'lib, ular yotoqxonalariga joylashtirilgan, asosiy mehnat qilish sohalari esa ishlab chiqarish, portlar va konchilik edi. Yana bir asosiy jihat shundaki, Niderlandiyaga quyi malakali ishchilar borishar va ularning miqdori birmuncha kamroq ko'rsatkichni tashkil etsa-da, Niderlandiya hududi Marokash diasporasining shakllanishi hamda Yevropaga keng yoyilishida muhim hisoblanadi.

1963-yilda G'arbiy Germaniya bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tufayli ushbu hudud Marokash migrantlari uchun muhim edi. Dastavval vaqtinchalik bo'lgan migratsiya 1973-yildan keyin uzoq muddatli shaklga o'tdi hamda oila a'zolarining ko'chib kelishiga imkon yaratildi. 1970–1973-yillarda marokashlik muhojirlar soni 50 000–70 000 nafar atrofida edi. Lyuksemburg, Shveysariya kabi davlatlarda kam sonli marokashlik muhojirlar xizmat qilishgan. Ushbu hududlar tarixiy va siyosiy jihatdan katta ahamiyat kasb etmagan bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan yuqori ish haqi taklif etganligi bilan muhim xususiyat kasb etgan [8; B. 49.].

Migrantlarning asosiy qismi 40 yoshdan past bo'lgan erkaklardan iborat bo'lib, ular yaxshi ta'lim olgan edi. Yevropaning turli hududlarida mehnat qilayotgan marokashliklarning 33,4 foizi oliy ta'lim olgan, 33,7 foizi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini olgan va 16,9 foizi boshlang'ich ta'lim olgan edi. Marokash aholisining 60 foizi hech qanday ta'lim olmagan, qolganlari esa yetarli darajada tahsil olmagan edi. Shu sababli Marokash muhojirlari uchun Yevropaning turli hududlariga migratsiya oqimining yoyilishi ko'p jihatdan ustunliklar olib kelgan [4; B. 23.].

Birinchidan, Yevropaga migratsiya oqimlarining yoyilishi transmilliy oilaviy aloqalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ya'ni, bir oila vakillarining turli hududlar hamda davlatlarda xizmat ko'rsatishi ko'pincha nikoh aloqalarining ham turli hududlardagi aholi bilan o'rnatilishini ta'minlagan. Jumladan, 1960–1970-yillarda marokashliklarning nikohlari ko'rsatkichining 55 foizi transmilliy bo'lib, ular asosan Fransiya va Belgiyada, oz miqdorda esa Niderlandiyada qayd etilgan. Shu sababli ham ular turli davlatlar hududlaridagi bo'sh ish o'rinlaridan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lishar, davlatlardagi mehnat migratsiyasi yuzasidan muhojirlarga nisbatan nazorat, mehnat sharoitlari hamda, eng muhimi, rasmiy va norasmiy yo'nalishlardan xabar topishgan. Ushbu holat migratsiya xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan hamda migratsiya xavf-xatarini kamaytirgan, uy-joy, hujjat ishlari kabilarga xarajatlarni tejagan, ish berish agentliklari va hukumatdan mustaqil bo'lish imkoniyatini bergan edi.

Ikkinchidan, muhojirlar Yevropa davlatlarining bir hududidan ikkinchisiga erkin harakatlana olishar edi. Ayniqsa, bu holat 1973–1974-yillardan so'ng Yevropadagi migratsiya taqiqlari oqibatida kuchaydi. Shu sababli ham marokashliklar ishsizlik va deportatsiyadan omon qolishdi [10; B. 13–14.]. Ular uchun shartnoma muddati tugashi muammo bo'lmagan, turli hududlardagi qarindoshlari orqali shartnomasiz ish topib, faoliyatlarini davom ettirishgan. Shu sababli 1960–1970-yillarda noqonuniy ishchilar miqdori marokashlik muhojirlar orasida kam uchragan va bu holat Yevropa davlatlari bilan siyosiy kelishmovchiliklarning oldini olgan.

Uchinchidan, muhojirlar turli davlatlarda mehnat qilayotganliklari sababli Marokashda pul aylanmalarida katta farq bo'lgan. Marokashliklar turli hududlarda mehnat qilganliklari sababli pul aylanmalari turli valutalar, iqtisodiyotlar va sohalarda shakllangan edi. Buning ijobiy ta'siri shundaki, Marokashga pul aylanmalari hech qachon bir davlatning iqtisodiy holati sababli to'xtab qolmas edi hamda shu omil yuzasidan migratsiya uzoq muddatli davlat ahamiyatiga ega daromadga aylangan edi. Jumladan, migrantlarning pul jo'natmalari miqdori 1968-yilda 23 million AQSH dollaridan oshiqroq bo'lgan, fosfor eksporti hamda turizmdan olinadigan daromad esa keyingi o'rinda turgan.

Tunis

XX asrning 60–70-yillarida Tunis Yevropa davlatlari bilan mehnat shartnomalarini imzoladi va ish berish agentliklari orqali migratsiya ko'lamini kengaytdi. Iqtisodiy turg'unlikda bo'lganligi sababli davlat migratsiyadan kelgan daromaddan umidlanib, 1967-yilda "Kasbiy rivojlanish va mehnat" tashkilotini tuzib, aholining ishchi migratsiyasini rivojlantirdi [9; B. 50.]. 1972-yilda tuzilgan "Texnik hamkorlik Tunis" agentligi migrantlarning ish sohasi hamda mutaxassisligiga qarab xorijda ish topishda yordam berdi [7; B. 2.]. Bu malakali mutaxassislar uchun ma'qul bo'lib, chet elga borib ish topishda uchraydigan infratuzilmaga aloqador muammolarni hal etdi.

Xususan, migrant tunisliklarning 65–75 foizi Fransiya, 15 foizi Germaniyada, deyarli 8 foizi Belgiyada hamda Niderlandiya, Shveysariya kabi qolgan Yevropa davlatlarida 5 foizi yashagan. Tunisliklarning o'ziga xos jihati shundaki, ularning soni boshqa hudud muhojirlariga nisbatan kam bo'lganligi sababli tezda ijtimoiy jamoalarga birlashishgan. Bunday ijtimoiy jamoalar qarindosh-urug'chilik, hududiy kelib chiqish, yashash va ishlash hududlariga asoslangan edi. Bunday ijtimoiy jamoalar Tunisdan kelgan yangi migrantlarni qo'llab-quvvatlar va uzviy zanjir sifatida yangi migrantlarni chorlashar edi. "Fransiyadagi tunisliklar assotsiatsiyasi", "Perspective", "Tunis talabalar uyushmasi" kabilar 1960–1970-yillarda tuzilgan.

Shu tarzda, ish beruvchi agentliklar va mehnat shartnomalariga ehtiyoj kamaydi. Fransiya tunislik migrantlar qarindoshlarinikida, aholiga zich joylashgan yotoqxonalar yoki korxonalar tomonidan ta'minlangan turar joylarda yashashgan. Yangi migrantlar ish berish agentliklaridan ko'ra, avvaldan Fransiya bo'lgan tunisliklar orqali ish va turar joy topishni afzal ko'rishgan. Buning sababi, bu usul ishga joylashish xarajatlarini kamaytirar va agentliklarga nisbatan kafolatli edi [2; B. 69.].

1965-yilda mehnat shartnomasi imzolanganidan so'ng, tunisliklar Germaniyaga ishchi migratsiyasini amalga oshira boshladilar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ishlab chiqarish va sanoat sohasida tezlik bilan rivojlanayotgan Germaniya arzon ishchi kuchiga muhtoj bo'lgan. 1973-yilgacha muhojirlarning Germaniyaga migratsiyasi ko'lamini kengayib bordi, biroq 1973-yilgi "Neft inqirozi" sababli Germaniya yangi migratsiyaning har qanday turini to'xtatdi. Germaniya Fransiyadan farqli o'laroq, ishchi migratsiyasi shaklini faqat vaqtinchalik ko'rinishda qabul qilgan, muhojirlarning uzoq muddatga yoki doimiy qolishiga imkoniyat yaratmagan.

Tunislik migrantlar asosan Vestfaliya konchilik va po'lat sanoatida, Baden-Vyurtembergda avtomobilsozlik va mashinasozlik, Bavariya qurilish va ishlab chiqarish sohasida xizmat ko'rsatishgan [6; B. 3.]. Ko'plab tunisliklar ishxonalar tomonidan taqdim etilgan turar joylarda yashagan. Germaniyada ishchilar ko'chalari va yotoqxonalar yo'q edi. Germaniyada tunisliklar xavfli va jismoniy jihatdan og'ir ishlarni bajarganlar, xususan, metall ishlab chiqarish, konchilik, po'lat, mashinasozlik va qurilish sohasida faoliyat yuritganlar. Bunday ishlar yaxshi shart-sharoitlarga ega bo'lmay, malakasiz va kam ish haqiga (nemis ishchilariga ulardan ko'proq ish haqi to'langan) ishlaydiganlarni jalb qilgan. Mehnat shartnomalari uzoq muddatga va doimiy tarzda tuzilmagan, mehnat shartnomasini yangilash imkoniyati kafolatlanmagan hamda ishini yo'qotgan tunisliklar yurtiga qaytib ketishga majbur bo'lganlar. Ishchilar yolg'iz yashagan, oila a'zolarini olib kelish imkoniyati bo'lmagan hamda til va yo'nalish masalalarida muammolarga uchraganlar. Shu sababli ular nemis madaniyatiga singib keta olmay, ijtimoiy jihatdan nafaol bo'lganlar.

1969-yilda Belgiya va 1971-yilda Niderlandiya bilan mehnat shartnomalari tuzildi. Tunislik ishchilar soni kam bo'lishiga qaramay, Belgiyaga migratsiya 1967–1973-yillarda rivojlandi. Tunislik migrantlarning asosiy ishlash manzillari Valloniya, Sharlerua (Charleroi), Lyej (Liège) va Mons shaharlari bo'lib, ular og'ir sanoat, konchilik, po'lat va metall ishlab chiqarish kabi sohalarga moslashtirilgan edi [9; B. 86.]. 1970-yillardan keyin Bryussel shahri ham tunisliklar ishlaydigan manzilga aylanib, xizmat ko'rsatish va qurilish kabi sohalarda ishchilarni jalb etdi. Belgiya migrantlarga bir necha turdagi turar joy shakllarini taklif qildi. Tunisliklar ish beruvchilar tomonidan taqdim etilgan yotoqxonalar, ko'p kishiga mo'ljallangan yakka xonalar yoki jamoaviy ijaraga beriladigan uylarda istiqomat qilishgan.

Bunday turar joylar yaxshi yashash sharoitlari bilan ta'minlanmagan bo'lib, migrantlarning qisqa muddat qolib, yurtiga qaytib ketishiga moslashtirilgan edi. 1973-yilgi inqirozdan so'ng Belgiya rasmiy tarzda barcha migratsiya turlarini to'xtatdi. Belgiyada faqat uzoq muddatli shartnomaga ega ishchilar qolib, ishlash muddati tugagan ishchilar yurtiga yoki Fransiyaga ketishdi [2; B. 70–71.].

XX asrning 60-yillarida neft ishlab chiqarishni boshlagan arab davlatlari, xususan, Liviya migratsiya yo'nalishining asosiy manzillaridan biri bo'ldi. Tunisliklar cheklangan va norasmiy shaklda bo'lsa-da, 1960-yillarga kelib Liviya ishchi muhojir sifatida borishdi. Liviya migratsiya Yevropaga qaraganda osonroq, kam xarajatli hamda qat'iy nazorat o'rnatilmaganligi bois Shimoliy Afrika davlatlari aholisi orasida tezda ommalashdi. Biroq tunisliklar uchun Liviya migratsiya mavsumiy hamda qisqa muddatlar uchun amalga oshirilganligi sababli qo'shimcha migratsion hudud sifatida qoldi. 1969-yilda Muammar Gaddafining siyosati migratsiya ko'lamini kengaytirdi va buning sababi davlat barcha neft zaxiralarini milliyalashtirganligi, eksport darajasini oshirib, davlat daromadlarini ko'paytirganligi hamda bir necha yillik iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqqanligi hisoblanadi. Oqibatda Liviya arab birligi siyosatidan kelib chiqib, yevropaliklardan ko'ra arab ishchilarini ma'qul ko'rdi hamda tunisliklarni ham ishlashga jalb etdi.

Xulosa o'rnida, 1960–1970-yillardagi Yevropaga bo'lgan Marokash migratsiyasi xususiyati vaqtincha davlat tomonidan tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasidan uzoq muddatli shaklga o'zgardi. Dastlabki yillarda Yevropa davlatlari bilan tuzilgan shartnomalar orqali o'rnatilgan mehnat migratsiyasi XX asrning 70-yillarida 450 000–500 000 muhojirning Yevropada joylashishiga sababchi bo'ldi. Migratsiya qonuniy tizimlashtirildi hamda ish berish agentliklari faoliyati shakllandi. Fransiya asosiy manzil bo'lishiga qaramay, Niderlandiya, Belgiya, Germaniya va AQSH davlatlarida ham marokashlik ishchilar istiqomat qildi. Bu jarayonlar Marokash migratsiyasining boshqalar bilan qiyoslaganda o'ziga xos jihatini ta'minladi.

Tunis davlatida migratsiya Jazoir va Marokash kabi tarixiy rivojlanmagan bo'lsa ham, XX asrning 60–70-yillarida sezilarli darajada tashkillashtirildi hamda Yevropa davlatlari asosiy manzilga aylandi. Muhojirlar uchun migratsiya yaxshi ishlash sharoitlarini, yuqori maoshni taklif qilganligi bilan, hukumat uchun esa mustaqillikdan so'ng iqtisodiyot og'ir ahvolda bo'lganligi sababli yechim hisoblanganligi bilan muhim edi. Germaniya, Niderlandiya, Belgiya kabi davlatlar bilan mehnat shartnomasi orqali migratsiya tashkillashtirilgan bo'lishiga qaramay, Fransiya tunisliklarning asosiy manzili edi. Bunda mustamlakachilik davridagi yaqin aloqalar, til va madaniyat tanishligi asosiy omillar edi. Ayrim tunisliklar Liviya va boshqa arab davlatlariga ishchi migratsiyasini tashkillashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beauge L. Political Instability and Migration in the Maghreb // The Journal of North African Studies. – Chicago, 2010. – Vol. 15. – 340 p.
2. Collomp C. French Immigration Policy and the Management of Foreign Workers in the Postwar Economy // International Labor and Working-Class History. – New York, 1998. – No. 54. – P. 68–86.
3. Green N. L. The Comparative Method and Postwar Migration to France and Britain // Rethinking Migration History / ed. by Jan Lucassen, Leo Lucassen. – New York: Palgrave Macmillan, 2005. – P. 57–78.
4. Bobekri H. Migration in North Africa: An Uncomfortable Position Between Sub-Sahara and Europe? – Adenauer: Konrad-Adenauer-Stiftung, 2011. – 44 p.
5. Reifeld H. Emigration, Transit and Host Country: Migration in Morocco. – Nador: KAS International Reports, 2015. – 127 p.
6. Natter K. Revolution and Political Transition in Tunisia: A Migration Game Changer. [Murojaat vaqti: 19.04.2024].
7. Nolan R. W. Tunisia's Time of Transitions. [Murojaat vaqti: 17.07.2024].
8. Bommers M. Migration from the Middle East and North Africa to Europe. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2014. – 175 p.
9. Fargues P. Migration in the Arab World. United Nations Expert Group Meeting on International Migration. – Beirut: European University Institute, 2005. – 191 p.
10. Bilgili Ö. Migration in Morocco: History, Current Trends and Future Prospects. – Maastricht: Maastricht Graduate School of Governance, 2009. – 163 p.
11. Benhadda Y. Rooting Ihrig: Burning Borders in Colonial Morocco. [Murojaat qilingan vaqti: 26.10.2025].
12. de Haas H. Morocco: Setting the Stage for Becoming a Migration Transition Country? [Murojaat vaqti: 15.12.2025].
13. Baldwin-Edwards M. Between a Rock and a Hard Place: North Africa as a Region of Emigration, Immigration and Transit Migration // North African Economy Review. – Chlef (Algeria), 2006. – No. 108. – P. 311–324.
14. Sayad A. The Suffering of the Immigrant. – Cambridge: Polity Press, 2004. – 105 p.
15. Miller S. G. Filling a Historical Parenthesis: An Introduction to "Morocco from World War II to Independence". [Murojaat vaqti: 13.08.2024].
16. Taylor & Francis. The Journal of North African Studies. [Murojaat vaqti: 18.09.2025].
17. Berriane M., de Haas H., Natter K. Introduction: Revisiting Moroccan Migrations. [Murojaat vaqti: 03.09.2024].
18. de Haas H. Trans-Saharan Migration to North Africa and the EU: Historical Roots and Current Trends. Migration Policy Institute. [Murojaat sanasi: 04.05.2024].
19. de Haas H. Morocco's Migration Transition: Trends, Determinants and Future Scenarios. – New York: Global Commission on International Migration, 2005. – 45 p.
20. Сергеев М. С. История Марокко. XX век. – М.: Институт востоковедения РАН, 2001. – 303 с.